

TIL TIZIMIDA SHAXS OMILI XUSUSIDA

Asqarova Manzura Baxtiyor qizi

Namangan davlat universiteti doktoranti

Orcid:0000-0001-5880-5758

asqarovam53@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18976359>

Annotatsiya: Mazkur maqolada til tizimida shaxs omilining o‘rni va ahamiyati zamonaviy tilshunoslik paradigmalari doirasida tadqiq etiladi. Tadqiqotda tilning murakkab ijtimoiy, kognitiv va madaniy hodisa sifatidagi mohiyati antropotsentrik yondashuv asosida yoritiladi. Til tizimining shaxs bilan uzviy bog‘liqligi lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalolingvistika va lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Maqolada til paradigmalari evolyutsiyasi, xususan, qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antropotsentrik paradigmalarning o‘zaro munosabati ochib beriladi. N. Xomskiy, V. fon Gumboldt, Y. S. Stepanov, N. Mahmudov kabi olimlarning nazariy qarashlari asosida tilning shaxs ongida shakllanishi, nutq faoliyatida namoyon bo‘lishi va madaniy kodlarni aks ettirish xususiyatlari asoslanadi. Tadqiqot natijalari til tizimini inson omilidan ajratgan holda o‘rganish cheklanganligini, antropotsentrik yondashuv esa tilning mohiyatini yanada chuqurroq ochib berishini ko‘rsatadi. Maqola zamonaviy lingvistik tadqiqotlar uchun nazariy-metodologik ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: til tizimi, shaxs omili, antropotsentrik paradigma, lingvistik paradigma, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalolingvistika, lingvokulturologiya, til va madaniyat, til va ong.

Abstract: This article studies the role and significance of the personality factor in the language system within the framework of modern linguistic paradigms. The study sheds light on the essence of language as a complex social, cognitive and cultural phenomenon based on an anthropocentric approach. The inextricable link between the language system and the individual is analyzed from the perspective of linguistic semantics, cognitive linguistics, psycholinguistics, pragmalinguistics and linguoculturology. The article reveals the evolution of language paradigms, in particular, the relationship between comparative-historical, system-structural and anthropocentric paradigms. The theoretical views of such scientists as N. Chomsky, V. von Humboldt, Y. S. Stepanov, N. Mahmudov are used to analyze the formation of language in the consciousness of the individual, its manifestation in speech activity and the features of reflecting cultural codes. The results of the study show that the study of the language system in isolation from the human factor is limited, and the anthropocentric approach reveals the essence of language more deeply. The article is of theoretical and methodological importance for modern linguistic research.

Keywords: language system, personality factor, anthropocentric paradigm, linguistic paradigm, cognitive linguistics, psycholinguistics, pragmalinguistics, linguoculturology, language and culture, language and consciousness.


Аннотация: В данной статье исследуется роль и значение личностного фактора в языковой системе в рамках современных лингвистических парадигм. Исследование проливает свет на сущность языка как сложного социально-познавательного и культурного феномена на основе антропоцентрического подхода. Неразрывная связь между языковой системой и индивидом анализируется с точки зрения лингвистической семантики, когнитивной лингвистики, психолингвистики, прагмалингвистики и лингвокультурологии. В статье раскрывается эволюция языковых парадигм, в частности, взаимосвязь между сравнительно-исторической, системно-структурной и антропоцентрической парадигмами. Теоретические взгляды таких ученых, как Н. Хомский, В. фон Гумбольдт, Ю. С. Степанов, Н. Махмудов, используются для анализа формирования языка в сознании индивида, его проявления в речевой деятельности и особенностей отражения культурных кодов. Результаты исследования показывают, что изучение языковой системы в отрыве от человеческого фактора ограничено, а антропоцентрический подход раскрывает сущность языка более глубоко. Данная статья имеет теоретическое и методологическое значение для современных лингвистических исследований.

Ключевые слова: языковая система, личностный фактор, антропоцентрическая парадигма, лингвистическая парадигма, когнитивная лингвистика, психолингвистика, прагмалингвистика, лингвокультурология, язык и культура, язык и сознание.

Kirish


Jahon tilshunosligida til sistemasining har bir qatlami alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan paradigmlar til birliklarining o‘z substansiyasini aks ettirish uchun o‘zaro munosabatga kirishishi jarayonida yuzaga chiqadigan hodisa sifatida yuzaga keldi. R.Z.Muryasovning fikricha, paradigma metodologik tushuncha sifatida XX asrning oxirida amerikalik olim Tomas Kun tomonidan fanga kiritilgan³⁰. Tomas Kun muallifligida 1962-yilda chop etilgan “Ilmiy inqiloblar strukturasi” nomli kitobida mazkur atamadan ilm-fandagi “sakraash”larni izohlash maqsadida foydalangan.

Til ijtimoiy jamiyatda vujudga kelgan ko‘p qirrali hodisa sifatida sistema va antisistema, faoliyat, shuningdek bir vaqtda mazkur faoliyatning mahsuli, ruh va moddiyatdir. Rus tilshunosi Y. S. Stepanov³¹ tilning murakkab mohiyatini ochish uchun quyidagi kvalifikatsiyani taqdim etgan, biroq bu sharh ham tilning to‘liq mohiyatini ochib bera olmaydi:



1.1-rasm. Tilning mohiyatini ko‘rsatuvchi Y. Stepanov strukturasi

Bizning fikrimizcha, Y. Stepanov tasnifiga quyidagilarni ham kiritsak maqsadga muvofiq:



1.2-rasm. Tilning mohiyatini ko‘rsatuvchi yangi yo‘nalishlar asosidagi struktura

Til o‘zida borliqning mohiyatini aks ettiradi (substansiya), tilda har bir xalqning madaniyati aks etadi (madaniy kod), individning ichki olamini ko‘rsatuvchi vosita (ruhning ifodasi), til ongostining birlamchi manbayi (kognitsiya), til bilimlarni saqlab, avloddan avlodga yetkazuvchi element

³⁰ Мурясов Р.З. К теории парадигматики в лингвистике // Вопросы языкознания. – М.: 1980. – № 6. –С. 109-121.

³¹ Степанов, Ю. С. Методы и принципы современной лингвистики. – Москва: Наука, 1975. – 351 с.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral


(kummulyatsiya), til paradigma, jamiyatga aralashuv quroli sifatida namoyon bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, til to‘liq ifoda qilib bo‘lmaydigan, qonuniyatlarga bo‘ysunmaydigan, insonning murakkab kognitiv faoliyatidir. Professor N.Mahmudovning til to‘g‘risidagi fikrlari ayni haqiqatdir: “Til faqat aloqa vositasigina bo‘lganda edi, u juda oddiy, sodda va qashshoq bir narsaga aylangan bo‘lardi. Holbuki til bemisl boy, sehr-u sinoatga, ruh-u ruhoniyatga, ko‘rk-u komillikka limmo-lim bir xilqatdir”³². An’anaviy tilshunoslik markazida til asosiy o‘rinni egallagan bo‘lsa, sinxron tilshunoslik nazariyalarida esa til markaz emas, shaxs asosiy markaz sifatida baholanib, tadqiq etilmoqda. Shu asosda til tizimini antroposentrik nuqtayi nazardan o‘rganish, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika hamda asosan, lingvo-kulturologiyaga oid tadqiqotlarda amalga oshirilgan so‘nggi yangiliklarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, lingvistikada (umuman, ijtimoiy fanlarda) paradigmalar bir-birini o‘zgartirmaydi, biroq biri boshqasini to‘ldiradi, ayni paytda biri ikkinchisiga e‘tibor bermagan holda birga yashaydi. Ilmiy adabiyotlarda paradigma uch turga ajratiladi: qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antroposentrik. Antroposentrik paradigma tadqiqotchilar qiziqishlarining obyektidan subyektga o‘zgarishi, yo‘naltirilishi, ya’ni insonning tilda, tilning esa insonda aks etishidir. Mazkur termin dastavval qadimgi grek falsafasining “Inson – koinot markazidir”³³ degan g‘oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, bu g‘oya ayniqsa, O‘rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi. Til har doim ham muayyan etnik guruhning umumiy xususiyatini ifoda etib, madaniyat va inson tushunchalari bilan yonma-yon turganligini V.fon Gumbolt, E.Benvenist, G.Shteyntal, A.Potebnyaning asarlarida uchratish mumkin. Antroposentrik paradigma tilni immanent tarzda, ya’ni o‘z egasidan ayro holda tadqiq etishga antipozitivistik qarashlarning yuzaga kelishi natijasida shakllandi. Dunyo tilshunoslik ilmida tilni paradigma asosida tadqiq qilish, asosan, lingvistik semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatik tilshunoslikka oid ishlarda ko‘zga tashlanadi. Xususan, N.Xomskiy, U.Cheyf, B.A.Serebrennikov, L.V.Shcherba, Y.N.Stepanov, I.R.Galperin, N.Y.Karaulov, N.I.Jinkin, A.A.Leontev, J.Lakoff, T.A.Van Deyk, A.Vejbitskaya, E.S.Kubryakova, E.Rosh, V.P.Belyanin, V.Z.Demyankov, V.A.Maslova, T.M.Dridze, K.F.Sedov³⁴ kabi tilshunoslarning ishlarida til tizimi shaxs omili bilan bog‘liqlikda tadqiq etilgan. Masalan, Noam Xomskiy “Sintaksis strukturasi” monografiyasida “S” subject ya’ni egani boshlanish nuqtasi deb belgilagan, bundan

³² Махмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 44.

³³ Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014. – С. 8.

³⁴ Chomsky N. Syntactic Structures. — The Hague: Mouton, 1957. (Переиздание: Chomsky N. Syntactic Structures. — De Gruyter Mouton, 2002. — ISBN 3-11-017279-8.); Cheyf U «Idiomaticity as an Anomaly in the Chomskyan Paradigm». Foundations of Language 4.109-127. 1968. Чейф У. Л. Значение и структура языка. Пер. с англ. Г. С. Шура, послесл. С. Д. Кацнельсона. — (Языковеды мира) — М.: Прогресс, 1975. (Переиздания: М.: Едиториал УРСС, 2003; 2009.); Серебренников Б.А. Роль человеческого фактора в языке: Язык и мышление. — М.: Наука, 198. 8. — 242 с.; Л. В. Щерба Языковая система и речевая деятельность. издательство «наука» ленинградское отделение ленинград, 1974.; Степанов, Ю. С. Методы и принципы современной лингвистики. — Москва: Наука, 1975. — 351 с.; Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. <https://www.livelib.ru/book/1000243824-tekst-kak-obekt-lingvisticheskogo-issledovaniya-i-r-galperin>.; Караулов Н. Ю. Русский язык и языковая личность (1987; 4-е изд. 2004); Жинкин Н. И. Речь как проводник информации. — М.: Наука, 1982. — 157 с.; Леонтьев А.А. Возникновение и первоначальное развитие языка. — М.: Изд-во Акад. наук СССР, 1963.; Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем, М. 2004.; Teun Van Dijk. Ideology: A Multidisciplinary Approach. London: Sage, 1998.; Вежбицкая А., Язык. Культура. Познание. / Перевод с английского, ответственный редактор М. А. Кронгауз, вступительная статья Е. В. Падучевой — М.: Русские словари, 1996—412 с. ISBN 5-89216-002-5.; Вежбицкая А., Понимание культур через посредство ключевых слов, М.: Языки славянской культуры, 2001—288 с. ISBN 5-7859-0189-7.; Вежбицкая А., Сопоставление культур через посредство лексики и прагматики, М., 2001. ISBN 5-7859-0190-0.; Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира / РАН ИЯ. — М.: Языки славянской культуры, 2004.; Rosh E. Basic Objets in Natural Categories // Cognitive Psychology. 1976.; Rosh E. On the internal structure of perceptual and semantic categories // Т. Е. Moore (ed.), Cognitive Development and the Acquisition of Language. N. Y.: Academic Press, 1973; Natural categories // Cognitive Psychology. 1973, 4, 328—350; Linguistic relativity // A. Silverstein (ed.), Human Communication: Theoretical Perspectives. Halsted, 1974; Cognitive representations of semantic categories // Journal of Experimental Psychology: General. 1975,104,192-233; Cognitive reference points // Cognitive Psychology. 1975, 1, 532—547; Family resemblances: Studies in the internal structure of categories // Cognitive Psychology. 1975,1, 573-605 (with C. В. Mervis); Белянин В. П. Психолингвистические аспекты художественного текста. — Москва: Изд-во Московского ун-та, 1988. — 123 с. — ISBN 5-211-00166-4:75к.; Демьянков В.З. Процедура преобразования словосочетаний естественного языка на язык числовых индексов (применительно к построению информационно-поисковых систем экономических показателей). — Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. — М.: МГУ, филологический факультет, 1978. — 231 с. Демьянков В.З. «Субъект», «тема», «топик» в американской лингвистике последних лет (Обзор 2) // Изв. АН СССР. Сер. лит. и яз. 1979. Т.38. № 4. С. 368—380. Демьянков В.З. Загадки диалога и культуры понимания // Текст в коммуникации. М.: Институт языкознания АН СССР, 1991. С. 109—116. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // Вопросы языкознания, 1994. № 4. С. 17—33.; Маслова, В. А. Принцип противопоставления и его реализации в семантике языка: (на материале лекс. единиц): дис. ... канд. филол. наук / В. А. Маслова. — Ош, 1981. — 215 с., Маслова, В. А. Онтологические и психолингвистические аспекты экспрессивности текста: дис. ... д-ра филологических наук: 10.02.19 / В. А. Маслова. — Минск, 1992. — 425 л., Маслова, В. А. Русский характер сквозь призму языка и текста: лингвокультурологический анализ: [монография] / В. А. Маслова. — Saarbrücken: LAP LAMBERT Academic Publishing, 2011. — 123 с. Маслова, В. А. Когнитивный и коммуникативный аспекты художественного текста: монография / В. А. Маслова. — Витебск: ВГУ имени П. М. Машерова, 2014. — 104 с. Maslova, V. Linguistic-Culture: a Russian Picture of the World / V. Maslova; translated by Alfred Santos; Russian Academic Translations. — Columbia, SC: [s. n.], 2018. — [236 p.]

ko‘rinadiki, ega – shaxs, bajaruvchi subyekt. U generativ lingvistikaning asosiy qonuniyatlarini ishlab chiqqan. Aynan mazkur strukturada antroposentrizmning ilk kurtaklaridan birini ko‘rishimiz mumkin:



1.3-rasm. N.Xomskiy strukturasi. Bunda barcha gap yoki matnning boshlang‘ich asosi ega, ya’ni shaxsga qaratiladi. Ot+fe’1 shakl morfologik ko‘rsatkich sifatida tanlanadi³⁵.

Xomskiy tilni tug‘ma instinkt sifatida baholaydi, inson organizmi o‘sgani sari tili (nutqi) ham ekstralingvistik omillar natijasida rivojlanadi degan g‘oyani ilgari suradi. Olimning o‘nlab asarlarida antroposentrik nazariyaga oid bir qancha fikrlar mavjud, ularning ko‘pchiligi ilmiy dalillangan, ammo ba’zilari esa nisbiy. “Sintaksis strukturasi” kitobida “shaxsi ifodalangan gaplar” xususida “Tilshunoslikning tadqiq modellari” (Explanatory models in linguistics) qo‘llanmasida voqelikka tilning ta’siri, “Bilim va til”, “Til va fikr” kabi asarlarida esa tilning inson va jamiyat hayotidagi mavqeyi, o‘rni xususida qimmatli fikrlari ishonarli misollar bilan yoritilgan. Ayni shu asarlarida tilning madaniyat bilan uzviy aloqadorligi, til jamiyat bilan hamohang tarzda rivojlanishini ta’kidlagan. Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olinayotgan antroposentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi paradigmanning “atomistik”, ya’ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo‘lini tutdi. Sistem-struktur yo‘nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmanning umumiy kamchiligi borligi ham ma’lum bo‘ldi: bu yo‘nalishlarda til o‘z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu “nuqson”ni yo‘qotish yo‘lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratilishiga, shuningdek, til tizimini antroposentrik nuqtayi nazardan o‘rganish asosan lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda namoyon bo‘lishi nazariy jihatdan isbotlandi. Bugungi tilshunoslik ilmida antroposentrik paradigma asosida yaratilgan ishlarda til tizimi shaxs omili bilan bog‘liqlikda tadqiq etilmoqda.

Til tizimini zamonaviy tilshunoslik paradigmalarida asosida tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tilni inson omilidan ajratgan holda o‘rganish uning haqiqiy mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. An’anaviy qiyosiy-tarixiy va sistem-struktur paradigmalarida til asosan ichki tizim sifatida talqin qilingan bo‘lsa, antroposentrik paradigma tilni shaxsning kognitiv, psixologik va madaniy faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etish imkonini beradi. Mazkur yondashuv tilni nafaqat aloqa vositasi, balki inson tafakkuri, ruhiyati va madaniy tajribasining ifodasi sifatida talqin qilishga asos yaratadi.

Tadqiqot jarayonida til tizimida shaxs omili yetakchi kategoriya ekanligi, til birliklarining semantik, pragmatik va diskursiv xususiyatlari aynan shaxs faoliyati orqali namoyon bo‘lishi asoslab berildi. N. Xomskiy, V. fon Gumboldt, Y. S. Stepanov va boshqa olimlarning nazariy qarashlari tahlili tilning inson ongida shakllanishi va nutq faoliyatida individual hamda ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, antroposentrik paradigma doirasida til birliklarining madaniy kod, kognitiv model va kommunikativ strategiya sifatida namoyon bo‘lishi muhim ilmiy natija sifatida baholandi.

³⁵<https://ru.wikipedia.org>

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Xulosa qilib aytganda, til tizimini shaxs omili bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bunday yondashuv tilning mohiyatini yanada chuqurroq, kompleks va tizimli tarzda ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chomsky N. Syntactic Structures. – The Hague: Mouton, 1957. (Переиздание: Chomsky N. Syntactic Structures. – De Gruyter Mouton, 2002. – ISBN 3-11-017279-8.).
2. Chomsky N. «Idiomaticity as an Anomaly in the Chomskyan Paradigm». Foundations of Language 4.109-127. 1968.
3. Мамудов Н. Тил сиёсати ва сиёсат тили / Тил тилсими тадқиқи. Рисола. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2017.
4. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом НМИУ, 2012.
5. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
6. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент, 2019.
7. Маматов А. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir, 2019.
8. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.